

## **INFLYATSION TARGETLASHGA O'TISHDA NOMONETAR OMILLAR TA'SIRI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**Nishanaliyev Islombek Valisherovich**

*Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimiga o'tish mamlakat iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy, innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish bosqichida inflyatsiyaga qarshi kurashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Inflyatsiyaning nomonetar omillari rolini bosqichma-bosqich pasaytirish, shu jumladan, tariflarni tartibga solishni isloh qilish, iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, Markaziy bankning makroiqtisodiy tahlil va kommunikatsiya siyosati sifatini oshirish kredit bozoriga samarali ta'sir etishini ta'minlab beruvchi, pul bozorini tartibga solishning yangi instrumentlarini joriy etishni yo'lga qo'yish muhim bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotda tovar va xizmatlar narxlari o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar monetar hamda nomonetar omillarga bo'linadi. Monetar omillarga iqtisodiyotda pul massasi va kreditlar hajmining o'zgarishi ta'sirida o'rta muddatli davrda inflyatsiya darajasining oshishi yoki pasayishiga olib keluvchi chora-tadbirlar kiradi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati ta'siri bo'lmagan omillar esa nomonetar omillar hisoblanadi.

Nomonetar omillarga tashqi iqtisodiy sharoitlar, tarkibiy omillar (raqobat sharoitlari, ishchi kuchi taklifi va sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishning texnologik darajasi, transport va logistika infratuzilmasi), normativ-huquqiy sharoitlar hamda tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishdagi taklif omillari kiradi.

Nomonetar omillarni 3 turga ajratish mumkin: tashqi iqtisodiy, tarkibiy va o'rta muddatli istiqbolda taklifga ta'sir qiluvchi omillar.

Birinchidan, tashqi iqtisodiy omillarga bir vaqtning o'zida ichki iqtisodiyotning barqarorligi va inflyatsion jarayonlarning sezilarli o'zgarishiga sabab bo'ladigan omillar kiradi. Tashqi omillar, asosan, import qilinadigan tovarlar narxlari va asosiy hamkor davlatlarning valyuta kursining o'zgaruvchanligidan kelib chiqib, eksport, xalqaro pul o'tkazmalari hajmlari va xom-ashyoning jahon narxlari kabi kanallar orqali mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida aks etadi.

Iste'mol tovarlari savati tarkibida import va importga ta'sirchan tovarlar ulushining yuqoriligi, Markaziy bank tomonidan ushbu tovarlar narxlari dinamikasini shakllantiruvchi omillarni muntazam ravishda tahlil etib borishni taqazo etadi.

Shuning uchun import tovarlari inflyatsiyasi va milliy valyuta qadrsizlanishining ayrim tovar guruhlari narxlariga ta'sirini miqdoriy baholashda Markaziy bank choraklik prognozlash (QPM) va Bayes vektorli avtoregression (BVAR) modellaridan foydalanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, import va importga ta'sirchan tovarlar narxlari o'zgarishiga nominal almashuv kursi, tashqi savdo hamkorlar inflyatsiyasi, real samarali almashuv kursi, nisbiy narxlar hamda import tovarlari narxlari inersiyasi ta'sir ko'rsatadi.

So'mning almashuv kursining miqdoriy baholashlarga ko'ra,

1 foizga qadrsizlanishi iste'mol narxlariga ikki chorakdan sakkiz chorakkacha bo'lgan davrda o'rtacha 0,3-0,4 foiz bandga o'suvchi ta'sir ko'rsatib, ushbu ta'sir darajasi turli tovarlar guruhida turlicha ekanligi ma'lum bo'ldi.

Misol uchun, almashuv kursining o'zgarishiga yuqori sezuvchan tovarlar guruhiga sitrus mevalar, atir sovuni, shampun, bo'yoqlar hamda yog' va moy mahsulotlari kiradi va 1 foizlik valyuta devalvatsiyasida ushbu guruh mahsulotlari narxlarini 0,6 foiz banddan yuqori o'sishiga olib keladi.

O'rtacha sezuvchan tovarlar guruhiga vitaminlar, bolalar kiyimi va yallig'lanishga qarshi vositalar kiradi. Almashuv kursining 1 foizga qadrsizlanishi natijasida ushbu tovarlar narxlari o'rtacha 0,3-0,6 foiz bandga oshishi kuzatildi.

Almashuv kursi o'zgarishiga nisbatan kam ta'sirchan tovarlar guruhiga antibiotiklar, kofe, erkaklar va ayollar kiyimlari, shokoladlar va antiseptik vositalari kiradi. Bunda, ushbu mahsulotlar bo'yicha ta'sirchanlik 0,2-0,3 foiz bandlar oralig'ida shakllandi.

Ikkinchidan, ichki nomonetar omillar esa narxlarning shakllanishiga bir martalik yoki tizimli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bularga amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o'zgaruvchan tarkibiy va institutsional sharoitlar kiradi. Islohotlarning mohiyati, olib borilishi va samaradorligi inflyatsiyaga ham oshiruvchi, ham kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'ngi yillarda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar, xususan, davlat korxonalarini isloh qilish, tartibga solinadigan narxlarni erkinlashtirish, tarif va notarif boshqarish siyosatini o'zgartirish va soliq islohotlari natijasida ba'zi tovar va xizmatlar uchun bir martalik inflyatsiyani oshiruvchi yoki inflyatsiyani pasaytiruvchi shoklar vujudga keladi.

So'ngi yillarda tartibga solinadigan narxlarning o'zgarishi inflyatsiyaga sezilarli darajada oshiruvchi ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2018-2019-yillarda tartibga solinadigan narxlar o'sishining inflyatsiyaga birlamchi ta'sirlari har yili 3,0-4,8 foiz band atrofida hissa qo'shib kelgan bo'lsa, 2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida ushbu ko'rsatkich kamayuvchi tendensiya qayd etib, 1-oktyabr holatiga yillik inflyatsiyadagi ulushi 1,5 foizni tashkil etdi.

Yuqori sur'atdagi tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiy agentlarning inflyatsion kutilmalarini barqarorlashtirish muhim o'rin tutadi. Bunda, iqtisodiy ko'rsatkichlarning keyingi o'zgarishlari, kutilayotgan natijalari va prognozlari haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini oshirish, asosli va obyektivligini ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, eksport va import sohalarida belgilangan qoidalar, talablar va ularda kutilayotgan o'zgarishlar, byudjet kamomadi hamda iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, shuningdek, soliqqa tortish bo'yicha iqtisodiy agentlarni xabardor qilish ham inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Monopoliyalarni ya'ni davlat monopoliyalarini isloh qilish orqali ular tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar narxlari darajasini bozor tamoyillari asosida shakllantirishga erishiladi. Shu bilan birga, ushbu islohotlar natijadorlik va ishlab chiqarish unumdorligining oshishi, energiya sarfi va ishlab chiqarish tannarxining kamaytirish, shuningdek, mahsulot sifatining yaxshilanishi bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Uchinchidan, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxlari dinamikasidagi o'zgaruvchan, bir martalik yoki mavsumiy xarakteriga ega bo'lgan omillar kiradi. Ushbu nomonetar omillar ta'sirini va tebranuvchanligini kamaytirish umumiy inflyatsiya darajasi hamda inflyatsion kutilmalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat inflyatsiyasi so'nggi yillarda, asosan, meva va sabzavotlar, go'sht mahsulotlari, shakar, o'simlik yog'i hamda don mahsulotlari narxlarining oshishi bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu turdagi tovar guruhi narxlari darajasining sezilarli o'zgarishiga meva-sabzavot mahsulotlarining mavsumiy xarakterga ega ekanligi, tashqi savdo sharoitlari hamda tovarlar importida mavjud bojxona to'lovlari, tarif, notarif va ma'muriy cheklovlar bilan izohlash mumkin.

2020-yil avalidan pandemiyaning dunyo bo'ylab keng tarqalishi natijasida ko'plab davlatlarda karantin choralari kuchaytirib bordi. Buning natijasida, xalqaro tovar ayirboshlash va logistika masalalarida uzilishlar yuzaga keldi. Shuningdek, karantin davrida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, go'sht, bug'doy, yog', shakar va un mahsulotlariga talabning ortishi ushbu tovarlar importining ma'lum darajada qisqarishiga olib keldi.

Bu, o'z navbatida, ushbu oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Meva va poliz ekinlari mahsulotlari narxlarining mavsumiy o'zgarishlarini yumshatish uchun ularni saqlash infratuzilmasi (omborxonalar) va ulgurji tarqatish markazlari hajmini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, saqlash tarmog'ida meva-sabzavotlar ta'minot tizimini samarali muvofiqlashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bozor tamoyillari va logistika tarmoqlararo barqaror aloqalarni o'rnatish muhim hisoblanadi. Bu esa, doimo kuzatiladigan mavsumiylikning bozor sharoitlariga salbiy ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni 2019 y.
2. "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.11.2019 yildagi PF-5877-son.
3. Jumayev N.X., Absalamov A.T. "Inflyatsion targetlash rejimini qo'llash makroiqtisodiy barqarorlik va aholi faravonligini ta'minlashning zaruriy sharti" <https://review.uz/oz/post/inflacion-targetlas-rezimini-kullas-makroiqtisodij-barkarorlik-va-aoli-faravonligini-taminlasning-zarurij-sarti>

4. Achilov N. Инфляционное таргетирование в Узбекистане: актуальность, предпосылки и вызовы. Центральный банк Узбекистана. <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-biznes-ru/4072-inflyatsionnoe-targetirovanie-v-uzbekistane-neobkhodimost-predposilki-i-vizovi>

5. [WWW.cbu.uz](http://WWW.cbu.uz)

6. [WWW.finlit.uz](http://WWW.finlit.uz)

7. [WWW.review.uz](http://WWW.review.uz)